

UDC: 342.4+343.131(045)(575.1)

KONSTITUTSIYA – SUD PROTSESSIDA TARAFLAR TORTISHUVI PRINSIPINI RO‘YOBGA CHIQARISH KAFOLATI

Xusainova Umida Abdixalikovna,
O‘zbekiston Respublikasi
Sudyalar oliy kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabi tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0003-4026-6084
e-mail: umida1101@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sud ishlarini yuritishda taraflar tortishuvi prinsipi tushunchasi, ahamiyati va uning mazmun-mohiyati haqidagi ilmiy qarashlar bayon etilgan. Taraflar tortishuvi prinsipini amalda ta’minlashda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning sabablari to’g’risidagi fikrlar ko’rsatilgan. Sud-huquq islohotlarining bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri bo’lgan sud protsesslarida tortishuvchanlik prinsipini kuchaytirish, taraflarning sud protsessidagi faolligini oshirish, ularga ish bo’yicha dalillar to’plash va uni sudga taqdim etish bo’yicha keng imkoniyatlar yaratish uchun ushbu prinsipning asosiy qonun – Konstitutsiyada mustahkamlanishi zaruriyati xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Sudlar to’g’risida”gi Qonunga sudda ish yuritishning asosiy prinsiplari, xususan, sud ish yurituvda taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi ta’minlanishi haqidagi norma kiritilishi taklif etilgan. Sud protsessida taraflarning o’z vajlarini isbotlash uchun erkin holda tortisha olmasligi, o’zlarining e’tirozlarini sudga bildirolmasligi, shuningdek, sudyaning dalillar yig’ishga kirishishi kabi holatlar sud jarayonida sudyaning ichki ishonchiga ta’sir etuvchi ichki omillar deb baholanadi. Shu sababli sud dalillarga qonunga amal qilgan holda har taraflama, to’liq va xolis ko’rib chiqishga asoslangan o’z ichki ishonchi bo’yicha baho berishi haqidagi normani ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritish taklifi bildirilgan.

Kalit so’zlar: sud protsessi, prinsiplar, taraflar tortishuvi, taraflar teng huquqliligi, Konstitutsiya, dalillar taqdim etish, taraflar faolligi.

КОНСТИТУЦИЯ КАК ГАРАНТИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ СТОРОН В СУДЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Хусаинова Умида Абдихаликовна,
докторант Высшей школы судей
при Высшем судебном совете
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье изложены научные взгляды на понятие, значение и сущность принципа состязательности сторон при ведении судебного разбирательства. Показаны проблемы, возникающие при реализации принципа состязательности сторон, и мнения по поводу их причины. Одной из основных задач судебной реформы сегодня является усиление принципа состязательности в судебном процессе, повышение активности сторон в судебном процессе, создание им широких возможностей для сбора доказательств по делу и представления их в суд. Для достижения поставленной цели на основе сравнительного

аниализа с зарубежным опытом выделена необходимость закрепления данного принципа в основном законе – Конституции. Предлагается включить в Конституцию и Закон Республики Узбекистан «О судах» норму об основных принципах судопроизводства, в частности норму об обеспечении равноправия и состязательности сторон в судебном процессе. В судебном процессе неспособность сторон свободно аргументировать свои доводы, высказать суду свои возражения, а также инициирование судьей сбора доказательств считаются внутренними факторами, влияющими на внутреннее убеждение судьи в ходе судебного разбирательства. По этой причине было предложено включить в Конституцию Республики Узбекистан норму о том, что суд оценивает доказательства по своему внутреннему убеждению, основанному на всестороннем, полном и беспристрастном рассмотрении дела в соответствии с законом.

Ключевые слова: судопроизводство, принципы состязательности сторон, равноправие сторон, Конституция, представление доказательств, активность сторон.

CONSTITUTION AS GUARANTEE OF IMPLEMENTATION OF THE ADVERSARIAL PRINCIPLE IN THE JUDICIAL PROCESS

Khusainova Umida Abdikhalikovna,
Doctoral Student, Higher School of Judges
under the Supreme Judicial Council
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article presents scientific views on the concept, meaning and essence of the principle of adversary in the judicial proceedings, the problems that arise in the implementation of the principle of adversarial parties, and opinions about their causes. One of the main tasks of judicial reform today is to strengthen the adversarial principle in the trial, increase the activity of the parties in the trial, and create ample opportunities for them to collect evidence in the case and present it to the court. To achieve this goal, on the basis of a comparative analysis with foreign experience, the need to consolidate this principle in the main law – the Constitution is highlighted. It is proposed to include in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Law “On Courts” a rule on the basic principles of legal proceedings, in particular, a rule on ensuring equality and adversary of the parties in the trial. In litigation, the inability of the parties to freely argue their arguments, their inability to express their objections to the court, as well as the initiation by the judge of the collection of evidence are considered internal factors that affect the internal confidence of the judge during the trial. For this reason, it was proposed to include in the Constitution of the Republic of Uzbekistan a provision that the court evaluates evidence based on its inner conviction, based on a comprehensive, complete and impartial examination in accordance with the law.

Keywords: judicial proceedings, principles, adversarial principle, equality of the parties, Constitution, presentation of evidence, activity of the parties.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 13-moddasiga ko'ra, “Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”.

Mustaqillik tufayli tarixan qisqa davr davomida ushbu oliy qadriyatlarni ulug'lash borasida ulkan islohotlarni amalga oshirishga erishildi. Xususan, odil sudlovni amalga oshirish jarayonida taraflar tortishuvini

ta'minlash zamonaviy sud protsessining asosiy prinsiplaridan biri sifatida milliy qonunchilikda o'zining mustahkam o'rnini egalladi.

Zero, tarixga nazar solinsa, sud jarayonida taraflar tortishuvi prinsipi tergovga asoslangan (inkvizitsion) sud ish yurituviga qarama-qarshi tushuncha sifatida qarab kelingan xolos. Inkvizitsion sud protsessida sud odil sudlovni amalga oshiruvchi xolis shaxs emas, balki ayblovning tarafdori hisoblanadi. Bosh-

qacha aytganda, sud jarayonini, ta'bir joiz bo'lsa, sudning o'zi yakka hokimlik asosida amalga oshiradi. Sud ishida ishtirok etuvchi shaxslarning o'zaro tortishuviga ustuvorlik berilmaydi. Sud jarayonidagi mazkur holat, o'z o'rnida, sudning odil sudlovni amalga oshiruvchi xolis organ emas, aksincha, jazolovchi organ sifatida namoyon bo'lishiga zamin yaratgan [1].

Sud-huquq sohasidagi ilmiy izlanishlar, shuningdek, tobora shaffoflikka yuz tutayotgan sud amaliyoti mazkur yo'nalishda ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Ayni paytda odil sudlovga faqatgina taraflar tortishuvi prinsipi orqaligina erishish mumkinligi dunyo miqyosida e'tirof etilgan. Bunda har ikki tarafning, ya'ni da'vogarning ham, javobgarining ham huquq va majburiyatlari bir xilda teng bo'lishi zarurligi, ular o'z da'vo va e'tirozlarini tasdiqlovchi dalillarni sudga taqdim etishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishi, sud esa xolis hakam vazifasini bajarib, protsessga aralashuvi cheklangan bo'lishi kerakligi talab etiladi [2].

Qayd etish lozimki, taraflar tortishuvi prinsipi bilvosita 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini, shuningdek, 1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda uning umumiy sharhlarida qat'iy mustahkamlangan. Aytish mumkinki, mazkur xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan taraflar tortishuvi prinsipi bugungi kunda odil sudlovning umum e'tirof etilgan o'lchov birligi, odil sudlovni ta'minlashning taqqoslash standartlari sifatida shakllanganidan dalolatdir.

Xalqaro hamjamiyat bilan qadam-baqadam ilgarilayotgan O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi ham xalqaro standartlarga moslashmoqda. Xususan, milliy protsessual qonunchilik hujjatlarida ham taraflar tortishuvi prinsipi mustahkamlanganini ko'rishimiz mumkin. Fuqarolik, iqtisodiy va jinoyat protsessual kodekslarida taraflar tortishuvi va teng huquqligi prin-

siplari alohida moddalarda ifodalanib, yurtimizda odil sudlovni amalga oshirishning eng asosiy prinsiplari qatoriga kiritilgan.

“Fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi” (FPKning 10-moddasi), “iqtisodiy sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi” (IPKning 9-moddasi), “birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek, ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda, ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida amalga oshiriladi” (JPKning 25-moddasi) kabi moddalarni bunga misol sifatida keltirish mumkin. Shu bilan birgalikda, ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu normalar taraflar tortishuvi prinsipining mazmun-mohiyatini to'laqonli ko'rsatib bermaydi.

Material va metodlar

Taraflar tortishuvi prinsipi mazmuni va mohiyati

Atoqli protsessualist olim Sh. Shoraxmetovning fikricha, fuqarolik jarayonida tortishuvchanlik prinsipi quyidagilardan iborat: birinchidan, ishda ishtirok etuvchi har qanday shaxs fuqarolik ishi to'g'risida arz qilishi, bayonotlar berishi, e'tiroz bildirishi, iltimoslar qilishi, sudga dalillar topshirish bilan o'zining haqligini isbotlashi, ish mazmuni bo'yicha o'z fikrlarini aytishi mumkin; ikkinchidan, prokuror ish holatlarini isbotlashi, ishning ayrim masalalari yuzasidan, shuningdek, hamma ish bo'yicha sudga o'z fikrini berishi mumkin; uchinchidan, sud xolisona usul bilan haqiqatni belgilash maqsadida o'z tashabbusi bilan dalillar to'plash huquqiga egadir [3].

M. Mamasiddiqovning fikricha, tortishuvchanlik prinsipi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ish yuzasidan o'z talab va e'tirozlarini isbotlashdagi faolligi, ular tomonidan ish materiallarini tuzish tartibini belgilaydi, protsessda sudning rolini oshiradi va shu orqali sud tomonidan qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilinishini ta'minlaydi. Tortishuvchanlik prinsipining mohiyati shundan

iboratki, fuqarolik sud ishlarini yuritishda taraflar o'z manfaatlari yuzasidan bir-birlariga qarama-qarshi bo'ladilar hamda ishlarni sudda muhokama qilish ular o'rtasidagi nizoli masalani hal qilish asosida olib boriladi. D.Y. Xabibullayevning fikricha, tortishuvchanlik prinsipi – bu ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni isbotlash yo'li bilan o'z talab va e'tirozlarini sud oldida bildirish, barcha protsessual harakatlarda ishtirok etish va hal qilinishi lozim bo'lgan barcha masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilish, shuningdek, sudga ish holatlarini aniqlash hamda tegishli dalillarni to'plashga faol yordam ko'rsatishdagi huquq va majburiyatlari yig'indisidir [4].

A.A. Moxovning so'zlariga ko'ra, tortishuvchanlik prinsipi – "... ishning natijasiga qiziqqan shaxslar nizo bo'yicha dalillarni taqdim etish, boshqa shaxslar taqdim etgan dalillarni o'rganishda ishtirok etish, o'z fikrini bildirish orqali o'z ishini himoya qilish huquqiga ega bo'lgan qoidadir. Xulosa shuki, tomonlar sud majlisida ko'rib chiqiladigan barcha masalalar bo'yicha go'yo sud oldida kurashib, dalillar yordamida uni ishontirishga harakat qilishadi. Ya'ni tortishuvchanlik prinsipi qarama-qarshi manfaatlariga ega bo'lgan tomonlarning tabiiy va adekvat xatti-harakatlarini ko'rsatadi" [5].

A.P. Rijakovning fikriga ko'ra, taraflar tomonidan dalillarni tekshirish, taraflarning huquqlari bo'yicha tengligi, ish yuritish jaryonida sudga rahbarlik qilish, sud tomonidan dalillarni to'liq va har tomonlama o'rganish uchun shart-sharoit yaratish, ishning faqat sud tomonidan hal etilishi tortishuvchanlik prinsipining asosidir [6].

E.A. Xanning fikricha, tortishuvchanlik prinsipi ishning haqiqiy holatlarini aniqlashda sudning faol rolini nazarda tutuvchi prinsip bilan bir vaqtda amal qilishi sud nizo taraflarining mutlaq mas'uliyati bo'lgan funksiyalarning muhim qismini o'z zimmasiga olganligini anglatadi. Bunday sharoitda to-

monlar haqiqatda harakatsiz bo'lishi mumkin va o'zlarining harakatsizligi natijasida salbiy protsessual oqibatlarni keltirib chiqaradi hamda tortishuvchanlik prinsipining haqiqiy ma'noda amal qilishiga to'sqinlik qiladi [7].

Tadqiqot natijalari

Sud amaliyoti tahlili bo'yicha shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtda sud qaroridan norozi taraf ishni sudda ko'rishda moddiy va protsessual qonunchilik talablariga rioya etilmaganligi haqida shikoyat qilgan fuqarolik ishlariga oid ayrim misollar mavjud. Shuningdek, sudlar ham ko'pincha tortishuvchanlik prinsipining ayrim buzilishiga yo'l qo'yadilar. Bunday holatlarga quyidagilar kiradi: fuqarolik protsessi ishtirokchilariga sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida noto'g'ri xabar berish; taraflar tomonidan taqdim etilgan dalillarni o'rganish va baholash to'liq hajmda emasligi; sud tomonidan o'z tashabbusi bilan dalillar to'plash; sudning tarafning iltimosnomasini qanoatlantirishni asossiz rad etishi. Mazkur holatlarga sabab sudyalarning ish yuklamasi ko'pligi, buning natijasida ularning ish materiallarini o'rganishga yetarli darajada vaqti yetishmasligi; sudyaning bilimsizligi, qonunning ayrim normalarini bilmasligi; taraflar tomonidan taqdim etilgan dalillarning yetarli emasligi va h.k. Bu esa oqilona va adolatli qaror qabul qilishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Amalda taraflar tortishuvi prinsipini ta'minlash bilan bog'liq ayrim muammolar mavjud. Taraflar tortishuvi prinsipi ish bo'yicha dalillar taraflar tomonidan taqdim etilishini nazarda tutadi. Ammo taraflar har doim ham kerakli dalillarni taqdim eta olmaydi. Bunday sharoitda sud ko'pincha ishning barcha materiallariga emas, balki faqat tomonlar taqdim etgan materiallarga asoslanib qaror qabul qilishga majbur bo'ladi. Natijada qaror ishning haqiqiy holatlariga mos kelmasligi va shuning uchun adolatsiz bo'lishi mumkin. Shu tufayli sudlar yuqoridagi muammoni hal etish maqsadida ayrim holatlarda fuqarolik ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida

ko'rib chiqish va hal etish hamda qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilish maqsadida o'z tashabbusi bilan zarur ma'lumotlarni to'playdi. Sudning o'z tashabbusi bilan dalillarni to'plashi, bir tomondan, taraflarning tortishuvchanlik prinsipini buzish hisoblana-di, chunki sud bu harakatlari bilan taraflar-dan biriga yordam beradi; boshqa tomondan, ish bo'yicha barcha zarur dalillarning to'pla-nishi adolatli qaror qabul qilinishi va obyekt-iv haqiqatning o'rnatilishiga zamin yaratadi [8].

N.A. Greshnovaning fikricha, ushbu bosqichda sudning rahbarlik kuchi va protsess ishtirokchilarining faolligi o'rtasida mu-vozanatga erishish kerak. Shunday qilib, dis-pozitivlik va tortishuvchanlik prinsipidan ko'zlangan maqsadga erishiladi [9].

Demak, dalillar bilan bog'liq ushbu prin-sip yuzasidan fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida ayrim izlanishlarda dalillarni sudga ishda ishtirok etuvchi shaxslar taqdim etishi lozim, deb hisoblansa, boshqa bir yo'nalishda sudlar o'z tashabbusi bilan da-lillarni talab qilib olishi lozimligi haqidagi qoida ilgari suriladi.

Nazarimizda, aynan ushbu farq har qan-day sud tizimi haqida xulosa qilishda qo'lla-nadigan ilk va eng muhim masaladir. Aynan ushbu tafovut tufayli sudga murojaat etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga ba'zi hollarda bevosita, boshqa hollarda bilvosita ta'sir etuvchi omillar yuzaga keladi. Ush-bu qoidalar qo'llanishiga qarab qayd etilgan prinsiplar o'rtasida bir-biriga zid holatlar mavjudligi yoki o'zaro muvofiqlik ta'minlan-gani haqida xulosa qilish mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ma'lumki, mamlakat hayotining eng muhim masalalari, yurt taraqqiyotida ustuvor hisoblangan yo'nalishlar mazkur davlat-ni bosh qonuni – Konstitutsiyada o'z yechi-mini topadi. O'zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasida sud davlat hokimiyatining tizimi-ga kirishi (Konstitutsiyaning 11-moddasi), shuningdek, O'zbekiston Respublikasining

sud hokimiyati (Konstitutsiyaning XXII bobi) o'z ifodasini topgan.

Shu bilan birgalikda, asosiy qonunimizda hokimiyatning ajralmas bo'g'ini sifatida shakl-langan, sudning eng muhim jihati hisoblangan taraflar tortishuvi tamoyili aks etmagan.

Nazarimizda, odil sudlovni ta'minlash-ni eng muhim belgilaridan biri hisoblangan taraflar tortishuvi tamoyilining bosh qonun-da belgilab qo'yilishi xalqning sudga bo'lgan ishonchi yanada ortishi, sudlarning nafaqat tashqi ta'sir, balki ichki jihatdan ham mus-taqil bo'lishiga ko'maklashadi.

Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiya-lardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi (Konstitutsiya-ni 106-moddasi), sud hokimiyati chiqar-gan hujjatlarning barcha uchun majburiyligi (Konstitutsiyaning 106-moddasi), sudya-lar-ni mustaqilligi, sudyaning faqat qonunga bo'ysunishi (Konstitutsiyaning 106-moddasi) kabi Konstitutsiyada aks ettirilgan muhim xususiyatlar odil sudlov, xususan, sudyaning tashqi ta'sirlardan saqlanishini kafolatlaydi.

Xalqaro sud amaliyotida haqli ravishda e'tirof etilganidek, sud jarayonida taraflar-ni o'z vajlarini isbotlash uchun erkin hol-da tortisha olmasligi, o'zlarining e'tirozlarini sudga bildirolmasligi, shuningdek, sudyaning dalillar yig'ishga kirishishi kabi holatlar sud jarayonida sudyaning ichki ishonchiga ta'sir etuvchi ichki omillar deb baholanadi.

Shu o'rinda amaldagi milliy protsessual kodekslarga ko'ra (masalan, FPKning 80-moddasi, IPKning 74-moddasi, JPKning 95-moddasi), odil sudlov muayyan ishning barcha holatlariga sudyaning o'z ichki ishon-chi bo'yicha bergan bahosi bilan amalga oshi-rilishi kafolatlanganini qayd etish lozim.

Zero, mazkur normalar odil sudlovning tom ma'noda mustaqil bo'lishi har qanday tashqi ta'sirlardan ihtotalangan sud jarayoni-da sudyaning ichki ishonchi ham ichki ta'sir-lardan mustaqil shakllanishi shart ekanini tasdiqlaydi.

Sud dalillarga ishning barcha holatlarini jamlab, ularni sud majlisida qonunga amal qilgan holda har tomonlama, to'liq va xolis ko'rib chiqishga asoslangan o'z ichki ishonchi bo'yicha baho beradi.

Xorijiy tajriba

Sud jarayonida taraflar tortishuvi tamoyilini mamlakat bosh qonuni ham qamrab olishi zarurligi haqidagi taklif xalqaro amaliyotda qanday hal etilgan?

Xorijiy tajriba, xususan, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Ukraina, turkiy tilli davlatlar, jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon Respublikalari Konstitutsiyalaridan mazkur savolga ijobiy javob olish mumkin.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 123-moddasi sudda ish yuritishning bir qator prinsiplarini nazarda tutadi. Ushbu moddaning 3-bandi sudda ish yuritish taraflarning tortishuvchanligi va tengligi asosida amalga oshirilishini bevosita belgilaydi [10].

Xuddi shunday mazmundagi norma Belarus Respublikasi Konstitutsiyasi 115-moddasida ham o'z ifodasini topgan [11].

Ukraina Konstitutsiyasining 129-moddasi sudda ish yuritishning asosiy prinsiplarini birma-bir sanab ko'rsatadi. Xususan, ushbu moddaning 3-bandi sudda ish yuritish taraflar tortishuviga asoslanishi hamda sudga dalillar taqdim etish va dalillarning asosliligini isbotlashda taraflar erkinligini belgilaydi [12].

Endi yurtimizga qo'shni davlatlar: Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon Respublikalari Konstitutsiyalarini ko'rib chiqaylik.

Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasi sudda ish yuritishning quyidagi asosiy prinsiplarini belgilaydi: 1) barcha sudlarda ishlarni ko'rib chiqish ochiq o'tkaziladi. Ishni yopiq majlisda ko'rishga qonunda nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi. Sud qarori ommaviy ravishda e'lon

qilinadi; 2) ishlarni sudlarda sirtidan ko'rib chiqishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; 3) sud ishlarini yuritish taraflarning teng huquqliligi va tortishuvi asosida amalga oshiriladi; 4) sud qarorini bekor qilish, o'zgartirish yoki to'xtatib turish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud tomonidan amalga oshiriladi; 5) sud muhokamasi ishtirokchilarining protsessual huquqlari, shuningdek, sud qarorlari bilan huquq va manfaatlari daxldor bo'lgan shaxslarning huquqlari, shu jumladan, qarorlar, hukmlar ustidan shikoyat qilish huquqi, ularni amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi [13].

Turkmaniston Respublikasi Konstitutsiyasining 103-moddasi sudda ishlarni ko'rishning asosiy prinsiplari sifatida ishlarning ochiq sud majlisida ko'rilishi, ishni yopiq majlisda ko'rishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda sud protsessining barcha qoidalariga rioya qilgan holda yo'l qo'yilishi, shuningdek, sud ishlarini yuritish taraflarning teng huquqliligi va tortishuvi asosida amalga oshirilishini belgilaydi [14].

Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasi sudyalarning mustaqilligi, odil sudlovni amalga oshirishning asosiy prinsiplari va shartlari deb nomlanib, quyidagilarni belgilaydi: I. Sudyalar mustaqildir, faqat Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga bo'ysunadilar, o'z vakolatlari muddati davomida o'zgarmasdir; II. Sudyalar ishlarni xolis, adolatli, taraflarning teng huquqliligini hurmat qilgan holda, faktlar asosida va qonunga muvofiq ko'radi; III. Har qanday sababga ko'ra sud jarayonini bevosita yoki bilvosita cheklash, noqonuniy ta'sir qilish, tahdid va aralashuvga yo'l qo'yilmaydi; IV. Odil sudlov fuqarolarning qonun va sud oldida teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi; V. Barcha sudlarda ish yuritish ochiqdir. Ishni yopiq tartibda ko'rishga sud ochiq ish yuritish davlat, kasbiy yoki tijorat sirlarini oshkor qilishga olib kelishi mumkin deb hisoblasa yoki fuqarolarning shaxsiy

yoki oilaviy hayoti sirini saqlash zarurligini aniqlasagina yo'l qo'yiladi; VI. Jinoiy ishlarni sirtidan ko'rib chiqishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; VII. Sud muhokamasi taraflar tortishuvi tamoyili asosida amalga oshiriladi; VIII. Sud jarayonining istalgan bosqichida har kimga himoya qilish huquqi kafolatlanadi; IX. Odil sudlov aybsizlik prezumpsiyasiga asoslanadi; X. Ozarbayjon Respublikasida sud ishlari Ozarbayjon Respublikasining davlat tilida yoki hudud aholining ko'pchiligi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Ishda ishtirok etuvchi, ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga ish materiallari bilan to'liq tanishish, tarjimon orqali sud harakatlarida ishtirok etish va sudda o'z ona tilida so'zlashish huquqi ta'minlanadi. Shuningdek, "Sud hokimiyatini amalga oshirish" deb nomlangan 125-moddasi 7-bandida sudda ish yuritish haqiqatni o'rnatishni ta'minlashi kerakligi belgilangan [16].

Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasining 88-moddasiga ko'ra, sudyalari ishini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqadilar. Sud muhokamasi taraflarning tortishuvi va tengligi prinsipi asosida amalga oshiriladi. Barcha sudlarda ishlarni ko'rish ochiq o'tkaziladi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Sud ishlari davlat tilida yoki hudud aholisining aksariyati so'zlashadigan tilda olib boriladi. Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon xizmati ko'rsatiladi [16].

Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi yuqoridagi davlatlardan farq qilgan holda 77-moddasida taraflar tortishuvi prinsipi "har kim sudda tinglanish huquqi"ga ega ekanligi tarzida belgilaydi [17]. Germaniya Konstitutsiyasining 103-moddasi 1-bandi ham taraflar tortishuvi prinsipi aynan shu tarzda belgilaydi [18].

Shuningdek, bir qator davlatlarning protsessual qonunchiligi ushbu prinsipni belgilabgina qolmasdan, balki uning mazmuni haqida ham izoh beradi. Xususan, Ozarbayjon Respublikasining Fuqarolik protsessual ko-

deksi 9-moddasida odil sudlov taraflarning tortishuvchanligi va tengligi asosida amalga oshirilishi belgilangan (9.1). Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari sudda nizo ishida ishtirok etuvchi shaxslarning chiqiruv va so'rog'isiz ko'rib chiqilishi mumkin emas. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qarshi tomon (ikkinchi tomon) o'zini himoya qila olishiga sharoit yaratish maqsadida o'zlari-ning talablarini asoslovchi dalillar va ularning huquqiy oqibatlari haqida o'zaro xabardor qilishlari shart (9.2). Sudya har qanday holatda protsessning tortishuvchanlik prinsipini ta'minlashga majbur. U o'z qarorini faqatgina taraflar taqdim etgan dalillar bilangina asoslashi mumkin (9.3). Ushbu mazmundagi qoidalar, shuningdek, Qozog'iston, Bolgariya, Latviya, Moldova qonunchiligida ham belgilangan.

Xulosalar

Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda sud-huquq islohotlarining bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri sud protsesslarida tortishuvchanlik prinsipini kuchaytirish, taraflarning sud protsessidagi faolligini oshirish, ularga ish bo'yicha dalillar to'plash va uni sudga taqdim etish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratishdan iborat deb aytish mumkin.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan ikkinchi yo'nalishida ham sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessida tomonlarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsiplarini har tomonlama tatbiq etish nazarda tutilgan. Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi ikkinchi yo'nalishi sifatida ham adolat va qonun ustuvorligiga erishish uchun sud protsessida tomonlarning haqiqiy tengligi va tortishuvi prinsiplarini ro'yobga chiqarish zarurligi alohida ta'kidlandi.

Bayon etilganlardan kelib chiqqan holda sud mustaqilligini ta'minlash borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasi va "Sudlar to'g'risida"gi qonunga sud jarayonining asosiy prinsiplari haqidagi normalarni kiritish, xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasiga quyidagi ikkinchi qismni qo'shish taklif etiladi: "Sud ish yurituvda taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi

ta'minlanadi. Sud dalillarga qonunga amal qilgan holda har taraflama, to'liq va xolis ko'rib chiqishga asoslangan o'z ichki ishonchi bo'yicha baho beradi".

Ishonamizki, taraflar tortishuvi prinsipi-ning konstitutsiyaviy asosini yaratish sud ishlarini yuritishda tomonlarning haqiqiy tengligi va tortishuvchanligini amalda ta'minlash, o'z da'vo va e'tirozlarini asoslovchi dalillarni taqdim etishda ularga teng imkoniyatlar yaratilishi uchun mustahkam kafolat bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Taniguchi Y. Between verhandlungsmaxime and adversary system: in search for place of japanese civil procedure. Festschrift for Karl Heinz Schwab on the occasion of his 70th birthday, Munich, Beck, 1990, p.487.
2. Bondarchuk M., Matskevich N. Pravo na ravenstvo i sostyazatel'nost' storon v sudebnom razbiratel'stve: natsional'noye zakonodatel'stvo, mezhdunarodnyye akty, praktika Komiteta po pravam cheloveka OON [The right to equality and adversarial proceedings: national legislation, international acts, practice of the UN Human Rights Committee]. Available at: <https://www.defenders.by/sostiazatelnost/>.
3. Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2001, p. 24.
4. Mamasiddiqov M.M., Yodgorov X., Davletov O'. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. Tashkent, Complex Print Publ., 2020, 380 p.
5. Mokhov A.A. Kommentariy k Grazhdanskomu protsessual'nomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii: Nauchno-prakticheskiy kommentariy [Commentary on the Civil Procedure Code of the Russian Federation: Scientific and Practical Commentary]. Ed. A.A. Mokhov. Moscow, Contract; Walters Kluwer Publ., 2011, 533 p.
6. Ryzhakov A.P. Kommentariy k Grazhdanskomu protsessual'nomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Civil Procedure Code of the Russian Federation]. SPS Consultant Plus, 2010, 432 p.
7. Khan E.A. Znachenie printsipa sostyazatel'nosti v grazhdanskom sudoproizvodstve [The Importance of the Adversarial Principle in Civil Litigation]. *International Journal of Humanities and Natural Sciences*, 2022, vol. 5-3 (68).
8. Mikhailova V.M. Problemy soblyudeniya sudami printsipa sostyazatel'nosti storon v grazhdanskom protsesse [Problems of observance by courts of the principle of competitiveness of the parties in civil proceedings]. *Eurasian Scientific Journal*, 2016, no. 12.
9. Greshnova N.A. Formy zakrepleniya printsipa sostyazatel'nosti v grazhdanskom protsesse [Forms of securing the principle of competitiveness in civil proceedings]. *Arbitration and Civil Process*, 2014, no. 8, p. 9.
10. Constitution of the Russian Federation. Available at: <http://www.constitution.ru/10003000/10003000-9.htm/>.
11. Constitution of the Republic of Belarus. Available at: <https://pravo.by/pravovaya-informatsiya/normativnye-dokumenty/konstitutsiya-respubliki-belarus/>.

12. Constitution of Ukraine. Available at: <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/254к/96-бп?lang=en#Text/>.
13. Constitution of the Kyrgyz Republic. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/112213?cl=ru-ru/>.
14. Constitution of the Republic of Turkmenistan. https://continent-online.com/Document/?doc_id=31337929#pos=405;-56/.
15. Constitution of the Republic of Azerbaijan. Available at: <https://mincom.gov.az/ru/view/pages/13/>.
16. Constitution of the Republic of Tajikistan. Available at: <https://mfa.tj/ru/main/tadzhikistan/konstitutsiya/>.
17. Constitution of the Republic of Kazakhstan. Available at: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=1005029&pos=1086;-58#pos=1086;-58/.
18. German Constitution. Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/englisch_gg.html#p0571/.
19. Xabibullayev D.Y. Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy tamoyillari [Constitutional principles of civil procedural law]. Ed. Sh.Sh. Shoraxmetov. Tashkent, TSIL, 2006, 23 p.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.

TDYU tipografiyasida chop etildi.